



**“ BARCHAGA BIRDEK IMKON:INKLYUZIV TA’LIM
YO’NALISHIDA”**

Xujamova Asal Qudrat qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Special pedagogy fakulteti talabasi

Xujamovaasal9@gmail.com

+998970103479

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim ya’ni- bu barcha o’quvchilarning,shu jumladan nogironligi bo’lgan bolalar,ijtimoiy va madaniy jihatdan farqlanuvchi shaxslar hamda o’qish imkoniyatlari cheklangan shogirdlar uchun teng ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlovchi ta’lim tizimidir.Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi har bir bolaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ,ularni maktab muhitida,o’rganish jarayonida qo’llab-quvvatlashdir.

Kalit so’zlar: Inklyuziv ta’lim, teng huquqlar, maxsus ehtiyojlar, nogironlik.

Аннотация: В данной статье инклюзивное образование – это система образования, предоставляющая равные образовательные возможности всем учащимся, включая детей с ограниченными возможностями здоровья, лиц, представляющих различные социальные и культурные группы, и учащихся с трудностями в обучении. Основная цель инклюзивного образования – поддержка каждого ребенка в процессе обучения в школьной среде с учетом его индивидуальных потребностей и способностей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, равные права, особые потребности, инвалидность.

Abstract: In this article, inclusive education is an education system that provides equal educational opportunities for all students, including children with disabilities, socially and culturally diverse individuals, and students with learning



disabilities. The main goal of inclusive education is to support each child in the learning process in the school environment, taking into account their individual needs and abilities.

Keywords: *Inclusive education, equal right, special needs, disability.*

Inklyuziv ta'limning tarixi haqida eshitganmisiz?

Inklyuziv ta'limning tarixi XX asrning o'rtalaridan boshlab rivojlanib bordi. Avvaliga nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida maxsus maktablar tashkil etilgan bo'lsa keyinchalik ularni umumiy maktablarga qo'shish g'oyasi paydo bo'di.

1950-1960-yillarda nogironligi bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish va ularni jamiyatga to'liq integratsiyalashga oid harakatlar kuchayib, 1970-yillarda ko'plab mamlakatlarda inklyuziv ta'lim tizimiga o'tish yo'lida qonunlar qabul qilindi. Bunda ta'lim tizimlari har bir o'quvchining individual ehtiyojini inobatga olib, maxsus yordam va resurslar bilan ta'minlanishi maqsad qilgan. 1994-yilda Jahon nogironlar tashkiloti (UNESCO) inklyuziv ta'limni ta'limdagi asosiy tamoyil sifatida tan oldi va uning keng joriy etilishini targ'ib qildi. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim-bu butun dunyoda ta'lim tizimlarining muhim qismi bo'lib barcha o'quvchilar uchun qulayliklar yaratilib kelinmoqda.

Inklyuziv ta'limning tarixiy rivojlanishi inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan bo'lib, u jamiyatlarni yanada bag'rikeng va birdam qiladi. 2006-yilda BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyasi qabul qilindi. Unda inklyuziv ta'limga alohida urg'u berildi. Ko'plab mamlakatlar o'z milliy qonunlarida inklyuziv ta'limni mustahkamlashga kirishdilar. UNESCO, BMT, Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlar inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, treninglar va qo'llanmalar ishlab chiqmoqda.

Hozirgi zamon inklyuziv ta'limi

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim:

- Ta'lim tizimini barcha o'quvchilar uchun moslashtirish, shu jumladan nogironligi, madaniyati, til yoki boshqa xususiyatlarga qaramasdan.



- O'quv dasturlarini moslashtirish, maxsus yordam ko'rsatish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish
- O'qituvchilar va ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilish.
- Jamiyatga bag'rikenglik, hurmat va tenglikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar uchun, balki barcha o'quvchilar uchun adolatli va teng ta'lim muhitini yaratadi. Bu ta'lim shakli jamiyatda ijtimoiy birdamlilik, kamsitishni kamaytirish va inson huquqlarini himoya qilishning muhim vositasidir.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari.

- **Tenglik va imkoniyatlar**-har bir bola teng huquqlarga ega bo'lib o'qish jarayoniga to'la ishtirok etishi kerak.
- **Individual yondashuv**-o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish.
- **Ijtimoiy integratsiya**-o'quvchilar orasida do'stona munosabatlar va hamkorlikni rivojlantirish
- **Maxsus yordam va resurslar**-ta'lim jarayonida qo'shimcha vositalar va mutaxassislar yordam berishi.

Inklyuziv ta'limning ahamiyati.

- **Ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash**-barcha bolalar teng huquqlarga ega bo'lishi jamiyatda adolatni mustahkamlaydi.
- **Ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish**-har xil imkoniyatlarga ega odamlar o'rtasida hamjihatlik va tushunishni oshiradi.
- **Ta'lim sifatini oshirish**-individual yondashuv va maxsus metodikalar ta'lim jarayonini samaraliroq qiladi.
- **Jamiyatning bag'rikengligi**-inklyuziv ta'limning jamiyatda hurmat va birdamlilik tamoyillarini kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'limda qo'llaniladigan usullar.

- Maxsus ta'lim dasturlari va metodikalari.
- Individual o'quv rejalari (IOP).



- Qo'shimcha pedagogik yordam va rehabilitatsiya.
- Psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.
- O'qituvchilarning maxsus tayyorligi.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi.

Har bir bolaga uning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'qish jarayonida maxsus yordam va qo'llab-quvvatlash ko'rsatishdir. Bu ta'lim turi bolalar orasida ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi, stereotiplarini kamaytiradi va tenglik tamoyillarini rivojlantiradi. Nogironligi bo'lgan bolalar o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida his qilishlari uchun inklyuziv ta'lim juda muhim. Jismoniy, aqliy, ijtimoiy, yoki boshqa farqlardan qat'i nazar, har bir o'quvchi sifatli ta'lim olishini ta'minlaydi. Turli imkoniyatdagi bolalarni birgalikda o'qitish orqali o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamjihatlikni shakllantirish. Har bir bolaning qobiliyatlari, ehtiyojlari va o'rganish sur'atini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini moslashtirish. Bolalarda mustaqillik, o'ziga ishonch va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali kelgusida faol fuqarolik uchun zamin yaratish. Ta'lim jarayonida barcha tomonlarning faol ishtirokini ta'minlash.

Inklyuziv ta'limning ijobiy tomonlari.

1. Teng huquqlarini ta'minlash-Har bir o'quvchi, xoh u nogiron bo'lsin, xoh sog'lom, teng ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi.

2. Ijtimoiy integratsiya-Bolalar bir-birining farqlari bilan tanishib, hurmat va do'stlik rishtalarini rivojlantiradi.

3. Jamiyatda bag'rikenglikni oshirish-Turli imkoniyatlarga ega insonlar birga o'qigani sabab jamiyatda kamsitish va stereotiplar kamayadi.

4. Individual yondshuv-Har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari hisobga olinadi, bu ta'lim sifatini oshiradi.

5. Psixologik qo'llab-quvvatlash-Nogironligi bo'lgan bolalar o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi.

Inklyuziv ta'limning salbiy tomonlari.



1.Resurslar yetishmasligi-Maxsus yordam uchun zarur mutaxassislar,uskunalar va materiallar yetishmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2.O'qituvchilar tayyorgarligi-Ko'p hollarda o'qituvchilar inklyuziv ta'lim usullariga yetarlicha tayyor emas,bu o'quv jarayonini qiyinlashtiradi.

3.Sinfdagi qiyinchiliklar-Turli ehtiyojlarga ega o'quvchilar bir sinfdagi bo'lganda, o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

4.O'quv dasturlarining moslashuvi-Ba'zan umumiy o'quv dasturlarini barcha o'quvchilarga moslashtirish murakkab bo'ladi.

5.Ba'zi o'quvchilarning ijtimoiy qiyinchiliklari-Nogironligi bo'lgan yoki maxsus ehtiyojlari bor bolalar doim ham teng qabul qilinmasligi, kamsitish holatlari yuz berishi mumkin.

Umumta'lim sinflarda odatda 25-30nafar o'quvchi bo'lishi mumkin.Agar sinfdagi nogironligi bo'lgan yoki maxsus ehtiyojli bolalar bo'lsa, sinfdagi umumiy o'quvchilar soni kamaytiriladi.Masalan 1-2 nafar maxsus ehtiyojli bola bo'lsa,sinfdagi hajmi odatda 20-25nafardan oshmasligi tavsiya etiladi.

Maxsus ehtiyojli bolalar soni bir sinfdagi 3-4 nafardan ko'p bo'lmasligi ko'p hollarda me'yor sifatida belgilanadi,chunki o'qituvchi ularga individual yondashishi kerak bo'ladi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limga oid qonunlar va tartiblar.

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida har bir fuqaro ta'lim olish huquqiga ega ekanligi va davlat ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishi ta'kidlangan.

2.Ta'lim to'g'risidagi qonun.

Ushbu qonunda barcha fuqarolarga,shu jumladan nogironligi bo'lgan,shaxslarga teng ta'lim olish imkoniyatini ta'minlanishi belgilangan.Qonun inklyuziv ta'limni rivojlantirish, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va maxsus ehtiyojlarini hisobga olishga urg'u beradi.

**3. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunlar.**

O'zbekistonda nogironlar uchun ijtimoiy himoya va inklyuziv ta'limni ta'minlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Ular nogiron bolalarning umumiy ta'lim muassasalarida o'qishini qo'llab-quvvatlaydi.

4. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish dasturlari.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun bir qator dasturlarni qabul qilgan. Maktablarda maxsus yordamchi o'qituvchilar tayyorlash, sinflarni moslashtirish, o'quv materiallarini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan.

5. Milliy strategiya va xalqaro hamkorlik.

O'zbekiston BMTning Nogironlar Huquqlari Konvensiyasiga qo'shilgan va shu doirada inklyuziv ta'limni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxslarni boshqa tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim jarayoniga jalb etish, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda mos sharoit yaratish.

11-modda-Davlat barcha fuqarolarining, jumladan nogironligi bo'lgan va maxsus yordamga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqini kafolatlaydi.

21-modda-Davlat ta'lim muassasalarini jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirish choralari ko'radi (panduslar, liftlar, maxsus jihozlar, va boshqalar).

Insonlar inklyuziv ta'limni to'g'ri qabul qilishi uchun nima qilish kerak?

1. Ma'limot berish va targ'ibot qilish.

Insonlarga inklyuziv ta'lim nima ekanligini, uning ahamiyati va foydalarini tushuntirish kerak. Bu orqali noto'g'ri tushunchalar va stereotiplarni yoqotish mumkin.

2. Ijobiy namuna ko'rsatish.



Maktablarda,jamoalarda inklyuziv ta'lim yaxshi natijalar berayotganini namoyish qilish,muvaffaqiyatli misollar bilan rag'batlantirish.

3.Empatiya va hurmat rivojlantirish.

Bolalar va kattalarda boshqalar holatini tushunish,hurmat qilish madaniyatini shakllantirish.Bu uchun o'quvchilar va ota-onalar bilan suhbatlar,treninglar o'tkazish kerak.

4.Qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish.

O'qituvchilar,ota-onalar va jamiyat a'zolariga inklyuziv ta'limda yordam berish uchun maxsus dasturlar,konsultatsiyalar tashkil qilish.

5.Hamkorlikni kuchaytirish.

Maktab,ota-ona va jamiyat o'rtasida samarali muloqot va hamkorlik yo'lga qo'yilishi kerak. Shunda inklyuziv ta'lim haqidagi fikrlar bir xil bo'ladi va qabul qilish osonlashadi.

6.Tayyorgarlik va Malaka oshirish.

O'qituvchilar va ta'lim mutaxassislarini inklyuziv metodlar bo'yicha o'qitish,yangi usullarni o'zlashtirishiga yordam berish.

7.Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Nogironligi bor bolalar va ularning oilalarini jamiyatda faol ishtirok etishga rag'batlantirish,ijtimoiy faoliyatlarda ko'proq imkoniyat yaratish.

Imkoniyati cheklangan bolalarda inklyuziv ta'lim orqali ijobiy natijalarga erishish usullari:

1.Juftlikda ishlash-sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarni birgalikda topshiriq bajarishga jalb etish.

2.Kichik guruhlarda ishlash- Guruh Ichida har kim o'ziga mos rol oladi,bu esa hamkorlikni kuchaytiradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda,inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim sifatini yaxshilaydi,balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik,bag'rikenglik va tenglikni mustahkamlaydi. Bu esa kelajak avlod uchun adolatli,ochiq va farovon jamiyat yaratishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limning eng muhim



afzalliklari orasida har bir bolaning teng huquqli ta'lim olishi, ijtimoiy integratsiyaning kuchayishi, streotiplar va kamsitishning kamayishi, shuningdek, o'qituvchilarning individual yondashuv ko'nikmalarini oshirish kabilar bor. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim o'quvchilarda hamjihatlik, hurmat va boshqalarni tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ammo, inklyuziv ta'limning ba'zi qiyinchiliklari ham mavjud. Resurslar yetishmasligi, o'qituvchilarning tayyorgarligi kamligi, o'quv dasturlarining barcha o'quvchilarga moslashtirilishi murakkabligi, shuningdek ba'zi ijtimoiy to'siqlar bu jarayonni qiyinlashtiradi. Shu sababli, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktablar, otalar va jamiyat o'rtasida samarali hamkorlik, mutaxassislar tayyorlash va qo'shimcha resurslar yaratish zarur.

Insonlarning inklyuziv ta'limga to'g'ri yondashuvi uchun ma'lumot berish, targ'ibot ishlarini olib borish, empatiya va hurmatni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish kerak. Bularning barchasi inklyuziv ta'limni jamiyatda keng qabul qilinishiga va uning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Jamiyatda nogiron bolalar haqidagi noto'g'ri fikrlar sababli, ularning insonlar jamoasiga qo'shilib ketishi qiyinlashmoqda va natijada ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Bizda shunday bir qarash mavjudki, nogiron insonlarni ko'rib qolsak jirkanish, ulardan qo'rqish va ularga nisbatan o'zimizning hamma joyimiz sog'lomligi uchun shukr aytish tuyg'ularini his qilamiz. Aslida bunday fikrlash noto'g'ri, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar shaxsiyatini hurmat qilish, ular va biz teng huquqli ekanligimizni qabul qilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

www.unesco.org

www.un.org

www.inclusion-international.org

www.ncse.ie